



TILGA GENDER YONDASHUV MUAMMOLARI

Turdibayeva Shohzoda Jaloliddin qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada hozirga kunda tilshunoslik nuqtai nazaridan, jinsning dolzarb masalalaridan biri tilda ushbu toifani belgilash tilni uning egasi bilan bog'lab o'rganish, til tizimida genderning ijtimoiy-madaniy toifasini belgilash ma'lum falsafiy, mafkuraviy, sotsiologik yo'nalishlar uchun ahamiyatli ekanligi haqidagi qarashlar ilgari surilgan.*

Kalitso'zlar: *tilshunoslik, gender, lingvistika, shaxs, erkak, ayol, genderologiya, yozma nutq, jins, genderolingvistika*

XX asrning oxirida gender tushunchasi fanlararo tendensiyaning bir qismi sifatida yosh, jins va etnik kelib chiqish kabi tushunchalarning sotsial-madaniy va biologik jihatdan aniqlangan talqinlariga qarshi chiqish uchun qo'llanila boshlandi. So'nggi bir necha o'n yilliklarda gender tadqiqotlari keng va tez rivojlanib turli fanlar, shu jumladan tilshunoslik fani uchun ham qiziq sohaga aylandi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, jinsning dolzarb masalalaridan biri tilda ushbu toifani belgilashdir. Til tizimida genderning ijtimoiy-madaniy toifasini belgilash ma'lum falsafiy, mafkuraviy, sotsiologik yo'nalishlar uchun ahamiyatli bo'lib, bu tilning ushbu jihatiga qiziqishning oshishiga olib keldi.

Bugungi kunga kelib dunyo tilshunosligida tilni immanent o'rganishdan tilni uning egasi bilan bog'lab o'rganish, ya'ni antropotsentrik tadqiq usuliga o'tildi. Antropotsentrizm ustunlik qiluvchi tilshunoslik yo'nalishlarida mutaxassis lingvistik nazariyalar tadqiqi ustida emas, balki nutq ijrochilarining shaxsi, manfaati uchun ahamiyatli nutqiy jarayonlar ustida ish olib boradi [1]. Genderolingvistika sohasi ham ana shunday fanlardan bo'lib, unda til hodisasi gender (jins) parametrlari yordamida tadqiq etiladi. Gender - bu ijtimoiy yoki ijtimoiy madaniy jinsga oidlik belgisi hisoblanib, u lisoniy kategoriya emas, ammo uning mazmuni lisoniy pragmatik maqsad, harakat va munosabatlarni tahlil qilish orqali ochilishi mumkin. Bunda so'z orqali suhbatdoshning jinsiga, madaniyatiga, ijtimoiy mavqesiga, psixologik xususiyatlariga doir pragmatik axborotlar oydinlashadi va u nutq faoliyatining turli aspektlarini o'rganuvchi matn pragmatikasi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'tgan asrning 70-yillarida nutqning gender xoslanishi, ayollar nutqining leksik-semantik tuzilishini o'rganishga qaratilgan lingvistik tadqiqotlar salmog'i ortdi va bunda asosiy e'tibor turli xil nutq jamoalarida kommunikativ xulq-atvor strukturasi qaratildi [2]. Turli jamoalarning nutq normalarini ajratishga qaratilgan dastlabki urinishlar sotsiologik omillar, masalan, iqtisodiy ahvol, etnik ozchiliklar va yosh nuqtai nazardan tahlil qilishga e'tibor qaratilgan. Rus tilshunosligida A.V. Kirilina tomonidan nashr etilgan "Gender: lingvistik jihatlar" monografiyasida gender tadqiqotlar,



ularning yuzaga kelish omillari haqida to'xtalib o'tar ekan, "Erkaklar va ayollar nutqining lingvistik xususiyatlarida leksik kategoriya asosiy farqlovchi tamoyillardan biri" [3] ekanligini ta'kidlaydi.

Ye. A. Zemskaya, M. A. Kitaygorodskaya, N. N. Rozanova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida ayollar nutqida undoshlar unilarga, erkaklar nutqida esa unilalar undoshlarga ustunlik qilishi ta'kidlanadi. Mulavarman universiteti tadqiqotchilari Tika Oktapiani, M. Natsir, Ririn Setyovatilar "The dewil whips prada» kinofil'mi qahramonlari nutqini tahlil qilar ekan, 12 xususiyatga ko'ra erkaklar va ayollar nutqini taqqoslaydi, yakuniy xulosalarda esa erkaklar ishonch bilan gapirishsa, ayollar nutqida ikkilanish, hayajonning borligi va buning nutqqa ta'siri ko'rsatiladi. 70-yillarda gender tadqiqotlarda eng asosiy jihat erkak va ayollar nutqining qandaydir atributlarga muvofiq farqlanishiga qizg'in e'tibor qaratilganligidadir.

"Gender - shaxsning qaysi bir ijtimoiy qatlamga tegishliligi ko'rsatkichidir. Ijtimoiy institutlar (armiya, maktab va h.k.) hamisha farqlanib, o'zlariga maqomlar, qonun-qoidalarni ishlab chiqish orqali jamiyatda kelishilgan qatlamlar deb topilgan. Hattoki ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi urf-odatlar ham genderologik xususiyatlarni o'zida aks ettirib, ularni milliy liboslar, kundalik hayotimizdagi turmush tarzimiz va ramzlarda bu xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Gender aynan bir millatning ijtimoiy-madaniy mahsuli bo'lib, xalq og'zaki ijodi va folklorlarda, ertaklarda, urf-odat hamda tilda o'z aksini topgan o'sha millatgagina xos ayollardagi "nazokat"ni va erkaklarga xos "mardlik" aksini ko'rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy guruhlar ongida u yoki bu jinsga xos bo'lgan sifatlarning genderologik tasavvurlari mavjud" [4]

Har qanday matnda uning muallifiga xos qator belgilar, jumladan, jinsiy xoslanish belgilari ham o'z aksini topadi. Shu sababdan barcha matnlarni gender aspektida o'rganish juda muhim xulosalarni ilgari surishga asos bo'lishi shubhasiz. Gender va jins tushunchalarini lingvistikada leksik dublet sifatida qo'llash mumkinmi, erkaklar va ayollarning og'zaki xulq-atvorida farqlar mavjudmi va ularni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar degan savollarga javob topish masalasi zamonaviy tilshunoslik oldida turgan va tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir. Bundan tashqari, ilm-fan shaxsning ijtimoiy, xususan, gender rolini o'zgartirganda nutqi qanday o'zgaradi degan savollarni ham ko'rib chiqmagan. Zamonaviy lingvistik genderologiyaning mohiyati va asosiy vazifasi yuqoridagi savollarga javob topishga qaratilgan bo'lib, bu sohada jahon tilshunosligida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va uning ilmiy asoslari, tadqiqot yo'nalishlari, o'rganilish obyekti ishlab chiqilgan. Yozma nutq orqali shaxsning xulq-atvori, individual xususiyatlari va jins jihatdan farqlanishini o'rganishga bag'ishlangan gender lingvistikasi sohasidagi ishlar M. Antineskul, D. Batler, F. Verner, O. A. Voronina va boshqalar. Gender xususiyatli so'zlarning pragmatik asoslari A.V. Kirilina (1998), Ye. I. Goroshko (1999), R. K. Potapov (2002), V. V. Potapova (2006), I. I. Xaleevalarning (2000) tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan va ularda gender stereotipi "Har ikki jins vakillarining xulqiy me'yorlarida atribut va sifatlarda madaniy va ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq holda shakllangan va nutqda, matnda voqelanadigan



belgilar» sifatida ta'riflanadi". Genderologiya sohasida ish olib borgan har bir tadqiqotchi gender tilshunosligining ma'lum bir qirrasini to'laqonli yoritishga va shu orqali jinsiy farqlilikni aniqlab, matn muallifining shaxsiyatiga doir aniq ma'lumotlarni ochib berishga harakat qilgan. Rus tilshunosi Goroshko matn muallifining gender xususiyatlarini aniqlashda erkaklar va ayollar nutqida uchraydigan asosiy va ikkilamchi xususiyatlar orqali tender rolini aniqlagan bo'lsa, A.V. Kirilina tender natijasida kelib chiqadigan nutqiy xatti-harakatlardagi farqlarni yoritib bergan[5]. Ye. S. Oshchepkova esa erkaklar va ayollar o'zaro gender rolini o'ynaganda ularning nutqida ro'y beradigan o'zgarishlarni farqlagan[6]. Ye. A. Zemskaya birinchilar qatorida erkak va ayol nutqi, ularning lingvistik farqlanishi va xulq-atvorini aniqlashda asosiy vosita ekanligi mavjud dalillar asosida yoritib bergan. Zemskayaning fikricha: "Og'zaki nutq tadqiq etilayotgan shaxsning, ya'ni nutq muallifining jinsini aniqlash uchun hech qanday ahamiyatga ega emas. Chunki har qanday shaxs yozma nutqda o'zining individual xarakter xususiyatlarini to'la namoyon etadi va tadqiqot ob'ekti etib o'rganish uchun vosita sifatida xizmat qiladi"[7]. Og'zaki nutqning akustik xususiyatlari gumon qilinayotgan shaxsning ovozli yozuvni tekshirish orqali aniqlansa, yozma matn bir qator xususiyatlarga ko'ra: grafologik, topografik, grammatik, leksik-semantik, pragmatik kabi bir qator tilshunoslik fanida keng qo'llanadigan an'anaviy usul va yondashuvlardan foydalanish orqali tahlil qilinadi.

O'zbek tilshunosligida ham gender tilshunosligiga doir bir qator ilmiy gender tilshunosligiga doir bir qator ilmiy ishlar yaratilgan. Misol tariqasida Z. Akbarovanning "O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi"[8], N. Ahmedovanning "O'zbek tilida murojaat shakllarining semantik-konnotativ tadqiqi"[9], Sh. Iskandarovanning "O'zbek nutq odatining muloqot shakllari"[10] mavzusidagi nomzodlik hamda "O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni)" nomli doktorlik dissertatsiyalarini ko'rsatish mumkin. "Bu tadqiqotlarda ayollar nutqiga xos lisoniy xususiyatlar yoritilgan, ammo ushbu tadqiqotlarda gender atamasi umuman qo'llanilmagan va gender o'rganish ob'ekti sifatida tadqiq qilinmagan"[11].

Genderologiya sohasida izlanish olib borgan G. Ergasheva genderologiyaga oid terminlar haqida to'xtalib, shunday deydi: "O'zbek tilida barcha tillar kabi genderga oid terminlarning shakllanishi inson paydo bo'lganidan boshlab, ayollik va erkaklik olamlarini tasvirlovchi tushunchaviy kategoriyalarning semantik derivatsiyasiga asoslanadi. Shunga ko'ra, genderga oid terminlar til sistemasining boshqa birliklaridan unchalik murakkab bo'lmagan semantik tuzilmasi bilan ajralib turadi va undagi barcha terminlarni inson huquqlarini poymol etmaslik sari birlashtiruvchi diskriminatsiya semasi asosida birlashtirish mumkin"[12]. M. Qurbonova o'zining gender bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida erkaklar va ayollar nutqini farqlashda ikki jihatga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi: 1. Ayol va erkaklar ma'lum bir voqelikni, uning parchasini tasvirlashda, yoki boshqa holatlarda fikrlarni o'ziga xos tarzda bayon etishi (nutqning gender xususiyati). 2. Muayyan til tizimida ayollik va erkaklik belgilari bilan



bog'liq tushunchalarni ifodalovchi lingvistik vositalarning mavjudligi (til tizimida ayol va erkaklarni birbiridan ajratish, farqlashga xizmat qiluvchi til birliklarini belgilash)[13].

Yozma nutqni lingvistik tahlil qilish davomida munozarali holatlarda yozma matndan amaliy muammolarni hal qilish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarga ham ega bo'lish mumkin, chunki bu nutq turi ko'pincha bilimlarni qayta ishlash va uni ijtimoiy maqbul shakllarda taqdim etish natijasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Димитрова С. По спиралата на лингвистичните идеи // Актуални проблеми на лингвистиката. По случай 80-годишнината на проф. Стефана Димитрова / под ред. на М. Стаменов, И. Панчев. София: Акад. Изд. «МаринДринов», 2016, С. 13–25.

2.Coates, J. 1986. Women, Men and Language. Longman.

Coates, J. 1989. 'Gossip revisited: language in all-female groups.' in Cameron, D. and

Coates, J. (eds.) 1989. Women in Their Speech Communities. 94-122. Longman.

3.Кирилина А. В. Тендерные аспекты языка и коммуникации.: Автореф: дис. д-ра филол. наук: 10.02Л9. -М., 2000. -40 с.

4.Земская Е. А., Китайгородская М. А., Розанова Н. Н. Особенности мужской и женской речи // Русский язык в его функционировании / Под ред. Е. А. Земской и Д. Н. Шмелева. М., 1993. С. 90–136

5.Кирилина А. В. Тендерные аспекты языка и коммуникации.: Автореф: дис. д-ра филол. наук: 10.02Л9. -М., 2000. -40 с.

6.Ощепкова Е. С. Идентификация пола автора по письменному тексту (лексико-грамматический аспект) : дисс. ... канд. филол. наук. М., 2003.

7.Земская Е. А., Китайгородская М. А., Розанова Н. Н. Особенности мужской и женской речи // Русский язык в его функционировании / Под ред. Е. А. Земской и Д. Н. Шмелева. М., 1993. С. 90–136

8.Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва уларнинг лисоний тадқиқи. Филол. фан. ном... диссер. автор... -Т.,2007.-31-б.

9.Ахмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи. Филол.фан.ном...диссер.автор...-Т.,2008.-28-б.

10.Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одафининг мулоқот шакллари. Филол. фан. номз.. дисс. – Самарқанд, 1993. –118 б.

11.Gulyamova Sh.K. Gender tushunchasi va uning lingvistikada tutgan o'rni//Scientific reports of Bukhara State University/ Volume 3 Issue 2 BSU 2019 issue 2 112-



12.Эргашева Г.И. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар. Филол.фан.док...диссер.автор...-Т.,2018.-28-б.

13.Курбанова М. Гендеролингвистик Жамиятда ижтимоий фанларнинг ўзаро боғлиқлиги, фанлараро алоқаларнинг ривожланиши, хусусан, тил ва ҳуқуқ фанларининг бир-бирини тақозо тадқиқ янги парадигма сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2-сон. – Т., 2014;